






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyunida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 11381,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 102,6 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	I. YaHM	9880,4	11381,3	102,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9445,5	11138,0	102,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	434,9	243,3	101,3
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9445,5	11138,0	102,7
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4732,6	5485,0	103,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1513,8	1925,0	105,4
	sanoat	665,5	923,9	106,1
	qurilish	848,3	1001,1	104,9
	Xizmatlar	3199,1	3728,0	100,6

		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	821,4	921,1	99,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	431,5	448,0	96,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	1946,2	2358,9	102,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4309,5 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ga yuqoridir.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,9 % punktga kamaydi va hisobot yilida 49,2 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 1,3 % punktga ko`paydi, 8,3 % ga oshdi, qurilishniki esa o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan o`zgarmadi va 9,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 0,4 % ga kamaydi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 33,5 % ni tashkil etdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019-yil	2020-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	95,6	97,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,4	2,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	50,1	49,2
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	16,0	17,3
	sanoat	7,0	8,3
	qurilish	9,0	9,0
	Xizmatlar	33,9	33,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	8,7	8,3

	2019-yil	2020-yil
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,0
 boshqa xizmat tarmoqlari	20,6	21,2





Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jami ga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,3 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 49,2 %), sanoatda – 106,1 % (8,3 %), qurilishda – 104,9 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 100,6 % ni (33,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,1 % dan (21,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o`shish sur`atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 99,2 % (8,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 96,6 % (4,0 %), iborat bo`ldi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning “Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi” kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 1,6 f.p. (2019-yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.), va “Sanoat” 0,4 f.p. (2019-yilning yanvar-iyunida – 0,0 f.p.) ga oʻsishiga hissa qoʻshdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,1 f.p. ga oʻsishi taʼminlandi (2019-yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.).



**2020-yil yanvar-iyun oylarida YaHM oʻsishida tarmoqlarning
qoʻshgan hissi (jamiga nisbatan % da)**



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 112,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Sanoatda – 130,8 % va Xizmatlarda – 115,9 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

